

SHARQDA DIN PSIXOLOGIYASI

Toshpo‘latova Nigora Avliyoqulovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti

“Pedagogika va psixologiya” mutaxassisligi

MM4-PP-4 guruh magistranti

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada din tushunchasining mohiyati, uning inson hayotida tutgan o‘rni, bugungi globallashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda yoshlarni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda inson ruhiyati va din omilidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo‘yicha sharq olimlarining qarashlari bilan tanishishingiz mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Ishonch, e’tiqod, g‘oya, ezgulik, anglanilganlik, kuzatish, psixik xususiyatlar, ongsizlik, psixik funksiyalar, pedagogika, individ, instinkt, individuallik, xarakter.*

Din – ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, kishilik jamiyati taraqqiyoti jarayonida ma’lum bosqichda paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatida namoyon bo‘ladigan olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida usulidir. Dinning mohiyati turlicha izohlansa-da uning asosida ishonch, amal, e’tiqod tuyg‘usi yotishi deyarli barcha tomonidan tan olinadi

Din psixologiyasi - shaxs e’tiqodini, uning diniy dunyoqarashini, diniy kechinma hamda tuyg‘ularini, e’tiqod qilish turlarini psixologik malakaning nozik jihatlarini va komil inson tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini, chuqurroq qilib aytadigan bo‘lsak, e’tiqod qiluvchi shaxsning ichki dunyosini o‘rganuvchi fan sanaladi. Din psixologiyasi e’tiqod qiluvchi kishi hayotining ma’naviy - ma’rifiy jihatlarini va diniy qadriyatlarini qamrab oladi. Din psixologiyasi shaxsning subyektiv dunyosiga kirib keladi. Kechinmalar, hissiyotlar, axbarotlarni qabul qilish va uni qayta ishlash, ruhlantrish, irodaning kuchi, tafakkur qilish qobiliyati, xotira va uning barcha anglab bo‘ladigan va anglab bo‘lmaydigan qismlari shular jumlasiga kiradi. Bunda faqat dindor shaxslarning ichki kechinmalari emas balki dindor bo‘lmagan shaxslarning ham psixologik holatlari o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Elimizga islom dinini to‘g‘ri tarannum etish - juda katta tarbiya” ekanligini bejizga ta’kidlamaganlar. Bu birinchidan bizning tafakkurimizni o‘zgartiradi, ikkinchidan o‘z ustimizda ishlashimizga, boshqa yomon illatlatlarni otib, yuksalishga yetaklaydi.

Bugungi kunimizda dinning shaxsning axloqini sayqallashda hamda uning fikrlash, tafakkur qilishini o‘stirishida juda o‘rni katta hisoblanadi. Bugungi tarqqiyot zamonida Sharq mutafakkirlarining yoritib bergan va meros qoldirgan ma’naviy jihatdan boy asarlari din psixologiyasining rivojlanishi va shakllanib borishida tutgan roli o‘zgachadir. Dinning psixologik xususiyatlari va jihatlariga diniy kechinmalar, o‘ylar, his - tuyg‘ular, diniy bayramlar va marosimlar, xatti-harakar, faoliyat, sajda va shu kabilar kiradi.

Din psixologiyasining XX asrdagi muvaffaqiyatlari ham beqiyosdir, u inson va tabiat sirlarini tobora chuqur anglash imkonini bermoqda. Bugungi davrda, ilmiy psixologiyaning amaliy yutuqlarini hamda mamlakatimizdagi diniy tashkilotlarning g'oyaviy va amaliy ish faoliyatini inobatga olgan holda ushbu tadqiqot ishimizni amalga oshirishimiz lozimdir.

Hozirgi davrda dinning zamonaviy shaxsning shakllanishidagi o'rnini o'rganish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz olimlari jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari o'z "Ruhiiy tarbiya" asarlarida, shaxsni tarbiyalash, nafsni poklash, shaxs axloqini sayqallash kabi ruhiy kamolot bosqichlariga oid masalalarini kiritganlar. Undan tashqari N.Boymurodov "Amaliy psixologiya" o'quv qo'llanmasida dinning shaxs shakllanishida tutgan o'rnini bayon etgan. F.Abdurahmanov, Z.Abdurahmanovalarning amalga oshirgan tadqiqotlari davomida din psixologiyasining shaxs va jamiyat hayotidagi o'rni tadqiq qilingan bo'lib, asosiy va muhim xulosalar keltirib o'tilgan. Ushbu amalga oshirilayotgan tadqiqotlar esa o'zining samarasini bermoqda. Keyingi davr uchun esa ko'plab tadqiqotlar o'tkazilishi uchun zamin tayyorlanmoqda. Din psixologiyasi shaxsning dunyoqarashi, ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan yoshlarga biz bolalikdan psixologik jihatdan tushunchalar orqali yordam berishimiz hamda yaxshi xulqni shakllantirishimiz va sayqallashimiz darkor va lozimdir. Din psixologiyasi shaxsni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi kuch mujassamlashgan ham ma'naviy, ham axloqiy, ham nazariy, ham amaliy kuchdir. Shuningdek shaxsning tafakkuriga ta'sir etib, insonni fikrlashga chorlaydi. Shaxsning faoliyatida namoyon bo'ladi. Bola birinchi ta'lim - tarbiyani uyidan oladi va bunda asosiy rolni ota - ona o'ynaydi. Shunda ular bolaga to'g'ri tarbiya bera olsa ya'ni unga Allohni tanitsa, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning sunnatlari hamda Imom Buxoriyning hadislarini o'rgatsa, doimo o'zidan kattalarga hurmat ko'rsatib, salom bermoqlikni, yaxshilikni, ehson qimoqlikni o'rgatsa, tog'ri ta'lim bersa, ko'proq kitob o'qib bersa hamda she'rlar yodlatsa bu bola albatta katta bo'lgan sayin ham ilmi ham axloqi yaxshi bo'lib boradi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari shunday ta'kidlaganlar: "-Bola

ota - onasi huzuridagi omonat bo'lib, uning qalbi pokiza gavhardir. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa o'shanday o'sadi. Agar yomonlikka o'rgatilsa o'shanday o'sadi. Shuning uchun ham biz bolalarni tarbiya bermoqlikka go'dakligidan e'tibor bermog'imiz, eng avvalo, o'zimizni tarbiyalamog'imiz lozimdir".[1]

Din psixologiyasining predmeti haqida gap ketganida, o'z qarashlari bilan din psixologiyasi fan sifatida vujudga kela boshlagan davr olimlari bir necha guruhga bo'linganlar. Insondagi barcha psixik jarayonlar qaysidir darajada diniy tuyg'ularda mavjud bo'ladi, shuning uchun din psixologiyasi deganda, faqat dindorlar psixologiyasini o'rganishdan iboratdir. Biror bir dinga e'tiqod qiluvchi odam bilan hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan odamning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini o'rganishda deb tushunadilar.

"Olimlarning aytishicha, odam geni ma'lumotlarni tashish xususiyatiga ega ekan. Ya'ni erkakning har bir urug'ida 15 megabaytgacha ma'lumot bo'lar ekan. Bu degani sizning har bir qilgan ishingiz o'z geningizda ma'lumot bo'lib saqlanib qolar ekan. Demakki, biz qilgan har qanday yaxshi - yomon amallar shunchaki unutilib ketmaydi. Balki genimiz xotirasida saqlanib qoladi va kelgusida zurriyodlarimizda fe'l o'laroq shakillanishi mumkin. Shuning uchun yaxshi amallarimizni ko'paytirshimiz lozim, chunki har qanday amalimiz farzandimizda aks etishi mumkin. Insonni eng avvalo, go'zal qiladigan narsa bu uning xulqidir". [2]

Abdulloh ibn Amr (r.a) dan rivoyat qilinadi:

"Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Sizlarning yaxshingiz husni xulqingizdir", dedilar". [1] Demak, har bir shaxsning xulqi go'zal bo'lsa, bir-biroviga siylayi rahim qilsa, doim yaxshilik ulashsa, nafsni poklasa unda axloq sayqal topadi.

Har bir shaxs takrorlanmas hisoblanadi. Ular turlicha fikr yuritishadi va tafakkur qilishadi. Ko'pchilik shaxslarda biz asosan dunyoviy tashvishlarni deb hissiy - emotsional qo'zg'alish boshlanganini sezishimiz mumkin. Bunda bizga birinchi o'rinda din psixologiyasi yordam beradi. Va shunda insonlarga dunyo tashvishlari o'tkinchi bir matoh ekanligini eslatishimiz va bu matoh esa bizni bunday holatlarga

tushishimizga arziyas ekanligini tushuntirishimiz kerak. Chunki ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab insonlar shu dunyo sababdan o‘zlariga ko‘plab stresslarni qabul qilib olishadi. Inson buning uchun avvalo Yaratuvchini eslamog‘i va uning buyrug‘lariga itoat qilmog‘i darkor hisoblanadi. Bu esa insonlarni ortiqcha stressdan qutqaradi va doimo ruhiy sog‘lom bo‘lib yurishiga xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, Allohga ibodat qilgan vaqtda, inson sajda qiladi va shu sajda holatida uning bosh miyasida qon aylanish yaxshilanadi va bundan inson rohatlanadi. Din psixologiyasi avvalo insonning faoliyatida namoyon bo‘lishi lozimdir. Faoliyatning o‘zi nima? Anglanilgan maqsad bilan boshqariladigan ichki (aqliy), tashqi (jismoniy) faolikka faoliyat deyiladi. [3] Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. U shaxsda din tuyg‘usi va hissining qanday qilib kelib chiqqanligi va shakllanishini, hidoyat topish yoki inkor hodisalarini, dindan kelib chiqqan ruhiy keskinlik va shubhalarni tadqiq qiladi. Din bu insonning shakllanishida buyuk bosqich hisoblanadi va to umrining oxiriga qadar rohat bag‘ishlaydi. Insonni yuksak cho‘qqilarga olib chiqadi, go‘zal axloqni shakllantiradi, nafsni poklaydi hamda yomon ishlardan tiyadi. Bu esa ruhiy barkamol yoshlarning shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Inson tug‘ilganidan gavharga qiyoslanadi, unga esa ota - ona tomonidan sayqal beriladi. Mana shunday ekan hurmatli ota - onalar har bir bolaga sayqal bermoqlikda kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaylik, aks holda bolada psixologik bo‘shliq hosil bo‘ladi. Bu esa kelajakda o‘zingizga ham bolangizga ham jamiyatga ham ziyondir. Psixologiyada din uchta yirik loyihani amalga oshiradi:

1. Muntazam ravishda tavsiflash, xususan diniy mazmun, munosabat, tajriba va iboralar;
2. Dinning kelib chiqishini insoniyat tarixida ham, individual hayotda ham ta’sirlarning xilma - xilligini hisobga olgan holda tushuntirish;
3. Diniy munosabat va xulq-atvorning shaxs uchun va umuman jamiyat uchun oqibatlarini tasvirlab berish. [5]

Din psixologiyasida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari quyidagicha. “O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgaga ham ravo ko‘rma” iqtibosi, uning g‘oya va mafkurasining eng yuqori pog‘onasida turadi.[6] Konfutsiyning shaxs o‘z –o‘zini anglashda qanday fikrlarga ega bo‘lmog‘i hamda qanday nazariy ilmlarni egallamog‘i haqidagi bayoni insonning diqqatini o‘ziga jalb qilmasdan qo‘ymaydi.

Xulosa

Din, o‘zi, inson turmushining potensial imkoniyati sifatida borliqning abstraksiyasi bo‘lib maydonga chiqadi. U haqiqiy muayyan hayotga ideal shakl beradi. Din o‘zini diniy munosabatlarda namoyon qiladi va o‘zini dolzarblashtiradi, shularga tayanib haqiqiy turmush maqomga ega bo‘ladi.

Demak, shaxs individ bo‘lib tug‘iladi, u faqat o‘ziga xos bo‘lgan geno va fenotipik xususiyatlar va xususiyatlarning o‘ziga xos majmuyida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan inson faoliyati uning ijtimoiylashuviga kuchli ta‘sir o‘tkazadi. Faoliyat insonning o‘zini, butun hayot tarzi va fikrlarini shakllantiradigan tizimni tashkil etuvchi kuch sifatida ishlaydi. Faoliyat - maqsadli va ongli faoliyat, istalgan natijaga erishish uchun ob‘ektga ta‘sir qilish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Hadis va Hayot”. 34-juz. Toshkent. “Hilol-Nashr”, 2022,-57 b
2. Jabborov H. H. “Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining psixologik qonuniyatlari” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 1 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor. SJIF 2021: 5. 423.p.
3. Olimov L.Ya., Eshov E.S. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. “Durdoni” nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 420.
4. Ostanov Sh. Sh. Role of psychological health of students in the educational process. “International Scientific Journal” Theoretical & Applied Science. 2020, Issue: 01, Volume: 81, 443-446 page.
5. Karimova V.M. O‘zbek yoshlarida oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.: 1994.-312 b.
6. Konfutsiy. “Muhokama va bayon”.-T.: Yangi Asr Avlodi 2010,-86.b